

JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'RSATUVLARNI HODISA SODIR BO'LGAN JOYDA TEKSHIRISH TAKTIKASI

Nishonov Eldorjon Muzafar o'g'li

mayor, O'zbekiston Respublikasi Ichki
ishlar vazirligi Ma'muriy-tashkiliy faoliyati fakulteti Ichki
ishlar organlarining ma'muriy faoliyati kafedrası katta o'qituvchisi
100197, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68-uy
E.mail: eldorjon199209@mail.com

Ilmiy mutaxassisligi:

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

UO'K: 343.593:343.98.068

ORCID: 0009-0004-9898-653X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14652144>

Annotatsiya: Maqolada jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazish taktikasi bo'yicha olimlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalar tahlil qilinib, muallif olimlarning bu boradagi fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishgan. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakati protsess ishtirokchilari tergov jarayonida bergan ko'rsatuvlarini sud jarayonida o'zgartirishi yoki undan voz kechish imkonini yo'qqa chiqaradigan isbotlashning samarali va ishonchli vositasi ekanligi, muallif tomonidan ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazishda jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish lozimligi asoslantirilgan.

Tayanch so'zlar: ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, bezorilik, hodisa, ko'rsatuvlar, gumon qilinuvchi, videoyozuvga olish, dalillar.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda isbot qilishning samarali usullaridan biri bu ko'rsatuvlarni joyda sodir bo'lgan joyda tekshirishdir.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning ahamiyati shundaki, protsess ishtirokchilari tergov jarayonida bergan ko'rsatuvlarini sud jarayonida o'zgartirishi yoki undan voz kechish imkonini yo'qqa chiqaradigan isbotlashning samarali va ishonchli vositasidir.

Shu o'rinda L.Y.Drapkinning "ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish keyinchalik protsess ishtirokchilari o'z xohish-irodasini o'zgartirish



erkinligiga ega bo'lmaydilar, chunki ular avval bergan ko'rsatuvlarini haqiqiy holatga "bog'lab qo'yadilar" degan fikrlari o'rinlidir.

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda shuni ta'kidlaymizki, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish o'z navbatida hodisa haqida to'liqroq va ishonchliroq ma'lumot olishga qaratilgan. Chunki ushbu tergov harakati insonning emotsional va intellektual xotirasini qo'zg'atish uchun unga ruhiy ta'sir qilishning samarali vositasidir.

I.V.Chadnovaning fikricha, jinoyat haqida u sodir etilgan joyda aytib berish, jinoyat sodir yetgan shaxs tomonidan hodisa tafsilotlarini chuqurroq eslashi, jinoyatning butun suratini qayta tiklash, yangi ashyoviy dalillarni topish, jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan asoslangan haqiqiy sabablarni va vajlarni tushunish uchun yordam beradi.

I.V.Chadnovaning fikrlarini qo'llab quvvatlaymiz. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish jarayonida hududni, obyektlarni va predmetlarni anglash muhim jarayondir. Chunki ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs tomonidan obyekt qiyofasini to'g'ri shakllantirish uchun ko'plab ko'rish va eshitish organlari bilan qabul qilinadigan harakatlarni amalga oshiradi. Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish davomida tergovchi axborotni anglashning eshitish usulidan muayyan obyektlar va joylarni ko'rish darajasiga o'tadi.

V.I. Belousov va A.I. Naturalarning ta'kidlashicha, bu narsa tergovchiga tadqiq qilinayotgan hodisani yanada chuqurroq va har tomonlama qabul qilish va anglash, jinoyat ishi bo'yicha uni qiziqtirayotgan holatlar haqida eng to'g'ri tasavvurlarni olish, tergov qilinayotgan jinoyatning mexanizmi haqida haqiqiy holatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning asosiy maqsadi ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsga ma'lum, surishtiruvchi, tergovchi va sudga esa noma'lum bo'lgan narsalar, hujjatlar, izlar va belgilarni topish hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu tergov harakati faqatgina tekshiruvni talab etuvchi ko'rsatuvlar mavjudligida o'tkaziladi va u haqiqatga to'g'ri keladigan yoki kelmaydigan sifatida baholanishi lozim bo'lgan qo'shimcha axborotni olishga qaratiladi.

Ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish faqatgina nizosiz vaziyatlarda, gumon qilinuvchi shaxs o'z aybiga iqror bo'lib tekshiruvda ishtirok etish uchun rozilik berganda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Aks holda mazkur tergov harakati kutilgan natijani bermasligi mumkin. Chunki ko'rsatuvlari



tekshirilayotgan shaxs yolg'on ko'rsatuvlarni berishi va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan holatlarni ko'rsatishi mumkin. Bu holat tergovning keyingi jarayonini murakkablashtiradi.

Bezorilikni tergov qilishda o'tkaziladigan barcha tergov harakatlari singari, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish faqatgina puxta tayyorgarlikdan so'ng amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Tayyorgarlik ko'rishning muhimligining asosiy sababi, ushbu tergov harakatida ishtirok yetish uchun ko'p sonli texnik vositalar va shaxslar jalb qilinishidir. Shuning uchun ushbu tergov harakatini o'tkazishdan oldin rejalashtirish va tayyorgarlik harakatlari amalga oshirilishi lozim.

Fikrimizcha, ushbu tergov harakatini faqatgina quyidagi tashkiliy masalalarni hal etgandan so'ng amalga oshirish maqsadga muvofiq: tergov harakati qatnashchilarining tarkibini aniqlash; o'tkazish vaqtini tanlash; zarur ilmiy-texnik vositalar, transport vositasi, yordamchi asbob-uskunalarni tanlash va tayyorlash; xolislarni taklif etish; ishtirokchilarga yo'riqnoma o'tkazish; ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishni boshlash lozim bo'lgan joyni aniqlash.

A.A.Andreyev o'z tadqiqoti davomida "ko'rsatuvlari hodisa sodir bo'lgan joyda tekshiriladigan shaxsni dastlabki yoki qo'shimcha so'roq qilinish lozim" ligini ta'kidlagan bo'lsa, V.N.Uvarov esa "ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish paytidayoq boshlanishi lozim. Shu bilan birga, tergovchi ma'lumotlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishdan avval ularga aniqlik kiritish uchun qo'shimcha so'roq qilish zaruriyatini oldindan anglashi tergovning keyingi yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega" deya fikr bildirgan.

Biz yuqoridagi har ikkala muallifning fikrlariga qo'shilamiz. Agar jabrlanuvchining sog'lig'i holati bunga imkon bersa, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish vaqtida uning ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa bu fosh etilmagan bezorilik jinoyatida muhim ahamiyatga ega.

Agar gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) bezorilik sodir yetganidan so'ng ushlangan bo'lsa, u zudlik bilan so'roq qilinishi hamda uning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish lozim. Chunki, keyinchalik gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) ko'rsatuv berish fikridan qaytishi mumkin.

Tadqiqotimiz davomida bezorilik jinoyati bo'yicha ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish zarurati quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkinligini aniqladik:



birinchidan, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jabrlanuvchi ishtirokisiz o'tkazilganda, ya'ni bezorilik harakatlari natijasida jabrlanuvchi shifoxonaga yotqizilganida yoki unga yetkazilgan ruhiy va jismoniy zo'ravonlik tufayli haqiqatga mos keladigan ko'rsatuv bera olmaydigan vaziyatda bo'lsa;

ikkinchidan, bezorilik sodir etilgan joy ko'zdan kechirilmagan bo'lsa, jabrlanuvchining ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish maqsadga muvofiq. Chunki, jabrlanuvchi bezorilik sodir etilgan joyni, unga nisbatan qanday zo'ravonlik harakatlari amalga oshirilganligini, ko'rsatilgan hududda qanday izlar qolishi mumkinligini, bezorilik sodir etgan shaxs qaysi yo'nalishga yashiringanligini amalda ko'rsatib beradi.

JPKning 352-moddasida ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish davomida xolislarning ishtirok etishi majburiyligi nazarda tutilgan .

Ko'rsatilgan tergov harakati paytida xolislar nafaqat o'zining protsessual vazifalariga rasmiyatchilik bilan yondashishlari, balki tergov harakatining maqsadini chuqur anglashlari va ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsning harakatlari ketma-ketligini eslab qolishlari zarur.

Huquqni qo'llash amaliyotida bir necha shaxslarning ko'rsatuvlarini bitta joyda tekshirishda yoki bir shaxsning ko'rsatuvlarini bir nechta joylarda tekshirilganida bir xil shaxslarni xolis sifatida jalb qilish holatlari mavjud. Xususan, Bekobod tumani IIB huzuridagi tergov bo'limi tomonidan JKning 277-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha gumon qilinuvchilar Y., A., J., va T.larning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishda bir xil shaxslar xolis sifatida jalb etilgan. Xolislar sud jarayonida so'roq qilingan vaqtda o'zlari ishtirok etgan tergov harakati bo'yicha ko'rsatuvlarni chalkashtirib yuborgan .

Fikrimizcha, bir necha shaxslarning ko'rsatuvlarini bitta joyda tekshirishda har safar yangi xolislarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Ayni mazkur omil bitta ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) u tomonidan sodir etilgan bir necha bezorilik jinoyatlarini sodir etgan joylarni ko'rsatmochi bo'lganida yoki uning ko'rsatuvlarini qo'shimcha va qayta tekshirish zarurati bo'lgan vaziyatlarga ham tegishlidir. Qonunda bir necha tergov harakatlarida bir xil xolislarni ishtirok etishi taqiqlanmagan bo'lsa-da, bunday amaliyotga yo'l qo'ymaslik lozim.

N.V. Vlasenkoning fikricha, xolislar, bir xil tergov harakatlarida bir necha marotaba ishtirok etishi, bitta ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirishning tafsilotlarini boshqa tekshirish tafsilotlari bilan adashtirishlari mumkin. Oqibatda bu xolislarni tergov jarayonida yoki sudda so'roq qilish paytida salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin .



Biz, N.V. Vlasenkoning fikrlariga qo'shilamiz. Haqiqatdan ham xolislar barcha jarayonlarni kuzatib borishlari zarur bo'lib, keyinchalik ular so'roq jarayonida tekshirish tafsilotlarini bir-biri bilan adashtirib yuborilishi ushbu tergov harakati natijasida olingan dalillarni shubha ostiga qo'yishi mumkin.

Mazkur tergov harakati hodisa joyiga birmuncha masofa yetmasdan boshlanishi lozim. Bu usul tergovchiga, ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxs hodisa joyiga borish yo'lini ko'rsatishga qodirligini baholash imkonini beradi.

Huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish gumon qilinuvchi ishtirokida o'tkazganida u tomonidan sodir etilgan bezorilik jinoyatning quyidagi tafsilotlariga aniqlik kiritish va qayd qilish imkoniyatini beradi:

jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlarini hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish orqali ularning dastlabki so'roq qilish vaqtida bergan ko'rsatuvlarini qiyoslash orqali ularning ko'rsatuvlarining to'g'ri yoki noto'g'riligiga baho beriladi;

bir necha gumon qilinuvchining ko'rsatuvlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun ishdagi ahamiyatli bo'lgan joy yoki yo'nalishni ko'rsata olishi amalda tekshiriladi;

guruhning har bir a'zosi tomonidan amalga oshirilgan harakatlar tekshiriladi va ularga aniqliklar kiritiladi. Har bir ishtirokchi qaysi joyda turganligi va kimga qanday usulga shikast yetkazganligi ko'rsatiladi. Ularning ko'rsatuvlari jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlariga qiyoslanadi. Bundan kelib chiqib har bir ishtirokchining bezorilik jinoyatini sodir etishdagi ishtiroki aniqlanadi;

ko'rsatuvlari tekshirilayotgan gumon qilinuvchi hodisa joyiga qaysi tomonidan kelganligi va qaysi tomonga yashiringanligi aniqlanadi;

hodisa sodir bo'lgan joydan topilgan izlar, narsa va buyumlar aslida qayerda bo'lganligiga aniqlik kiritiladi;

tergov harakati ishtirokchilariga bezorilik sodir etish usuli amalda namoyish qilinadi;

bezorilik sodir etish vaqti aniqlanadi;

bezorilik jinoyatini sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlar aniqlanadi.

bezorilik jinoyatini sodir etish holatlari texnik vositalar yordamida foto va videoyozuvlarga olish orqali qayd qilinadi. Chunki, JPKning 91-moddasiga asosan ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish jarayoni majburiy ravishda videoyozuv orqali qayd etilishi shart .



Imkoniyat bo'lgan taqdirda, tergovchi ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish va aniqlik kiritish uchun uning o'tkazilish joyi bilan oldindan tanishishi maqsadga muvofiqdir. Chunki tergovchi ushbu tergov harakatini o'tkazilishining imkoniyati va istiqbollari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tekshirilayotgan shaxsga ko'proq ye'tibor qaratish maqsadida tergovchi o'zi uchun oldindan "tayanch punktlarni" belgilab qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, bunday tanishish natijasida tergovchida yangi savollar tug'ilishi va ko'rsatuvlari tekshirilayotgan shaxsni qo'shimcha so'roq qilish orqali ularning javoblarini olish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish tergov harakatini o'tkazishda yuqoridagi tavsiyalarni inobatga olish ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlash uchun haqiqiy ma'lumotlarni olish va tadqiq qilish hamda ularni tergov qilish jarayonida qo'llash samarali bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Драпкин Л.Я., Андреев А.А. Теория и практика проверки и уточнения показаний на месте: Научно-методическое пособие. - Екатеринбург: Изд-во Уральского юридического института МВД России, 2003. С. 40.
2. Чаднова И.В. Проверка и уточнение показаний на месте: дис. ... канд. юрид. наук. - Томск, 2003. С. 19.
3. Белоусов В.И., Натура А.И. Проверка показаний на месте в ходе предварительного следствия: Учебно-практическое пособие. - М.: ЦОКР МВД России, 2008. С. 11.
4. O'zbekiston Respublikasi JPK 132-modda. <https://lex.uz/ru/docs/111460>. Kirilgan sana: 13.01.2025-yil
5. Андреев А.А. Проблемы теории и практики проверки и уточнения показаний на месте: дис. ... канд. юрид. наук. - Барнаул, 2004. С. 125.
6. Уваров В.Н Проверка показаний на месте. Учебное пособие. - М.: 2009. С. 34.
7. O'zbekiston Respublikasi JPK 352-modda. <https://lex.uz/ru/docs/111460>. Kirilgan sana: 13.01.2025-yil
8. 272201/2018-146-sonli jinoyat ishi hujjatlari Bekobod tuman IIB huzuridagi tergov bo'limi
9. Власенко Н. Проверка показаний на месте // Законность, № 6. 2002. С.25.
10. O'zbekiston Respublikasi JPK 91-moddasi. <https://lex.uz/ru/docs/111460>. Kirilgan sana: 13.01.2025-yil

